



Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llashni o'rni

**Abdukarimova
Intizorxon Iqboljon
qizi**

Qo'qon davlat universiteti 1-bosqich magistranti
Email: intizornishonova2002@gmail.co

Annotatsiya

Ushbu maqola oliy ta'limda texnologik ta'limning raqamli texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish, ta'lim sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishning afzaliklari keltirilgan. Shuningdek, dars jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishda vaqtni tejash, murakkab jarayonlarni virtual ko'rinishda tasvirlash, talabalarda mavzuga doir tasavvurni rivojlantirish haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar:

texnologik jarayon, raqamlashtirish, raqamli texnologiya, multimedia va modellash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonida raqamli texnologiyalar asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish vazifasi belgilangan. Atrofimizda qanday sohaga qaramaylik, qaysi yo'nalishga murojaat qilmaylik barchasi raqamli texnologiyalar asosida bajarilmoqda. Ma'lumotlar uzatish va ma'lumot olish, o'zlashtirish inson faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi. Ayni zamonamizda texnologiyaning o'rni beqiyosdir. Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim sohasida qo'llanilishida ta'lim tizimining ijobiy tomonlarni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'limni isloh qilishda zamonaviy texnologiyalar bunga yaqqol misoldir. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib ulgurdi. O'z-o'zidan ayonki, talim tizimini islox qilish yurtimizda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida zaruriy omilga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda ilmiy texnika asosi bo'lib xizmat qilayotgan raqamli texnologiyalar talabalarga asosan kompyuter xizmatlaridan imiy nashrdagi o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar, masofaviy o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanishga katta imkoniyat bermoqda. Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan raqamli texnologiyalar va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib xizmat

qilmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida talabaning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish mumkin. Hozirgi kunda Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda darsliklarning raqamlashtirilgan yangi avlodini yaratish, masofaviy ta'lim tizimini kengaytirish, boyitish muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqib, bu yo'nalishdagi ishlarimizni yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

Mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilishning yangi usullarini izlab topishni, masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanishni talab etmoqda. Amaliyotchi-tadqiqotchilar tomonidan ochiq axborot muhiti sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini pedagogik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi alohida qayd etib o'tilgan. O'qituvchilar talabalarning innovatsion kasbiy tayyorgarligi manbai sifatida nafaqat axborot-kommunikatsiya, balki metodika sohasida ham kompetentligini namoyon qilmoqda, ta'lim dasturlarini o'zlashtirilishini kuzatishni tashkil etmoqda, shaxsning qadriyatli-mazmunli va ma'naviy-axloqiy xulq-atvorini shakllantirishga ta'sir ko'rsatmoqda.

Texnologik ta'lim darslarida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari samarali tus olmoqda. Bulardan; Multimediali dars ishlanmalari, 3D-modellashtirish va virtual laboratoriyalar, elektron o'quv qo'llanmalar va interaktiv dasturlardir.

1. Multimedia dars ishlanmalari yordamida talabalarni darsdagi mavzuga nisbatan qiziqishini ortitirish, turli xil metod aks etgan media mahsulotlaridan foydalanib yanada chuqurroq bilimga ega bo'lishiga yordam beradi;

2. 3D-modellashtirish va virtual laboratoriyalar nafaqat talabaning balki, har bir soha o'rganuvchisining mukammal ishlashi uchun qulay vosita sifatida yordam bermoqda. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari o'z kasblarini 3D modellashtirish va virtual laboratoriyalarda amaliy tarafdin ham o'rganishmoqda.

3. Elektron o'quv qo'llanmalar va interaktiv dasturlar esa masofaviy ta'lim oluvchi talabalarga va chetdagi nufuzli oliygoylarning eng sara kitob, qo'llanmalaridan foydalanishga qulaylik yaratadi.

Bu dasturlar texnologik ta'lim darslarida amaliy va nazariy darslar yanada qulay, talaba uchun yangilik va albatta vaqtdan unumli foydalanilgan holatda tashkil etiladi.

Oliy ta'limda xususan texnologik ta'lim yo'nalishida Metrologiya fani darsiga to'xtalib o'tamiz.

Metrologiya fanida raqamlashtirishning roli juda katta sabab olinayotgan natijalar haqiqiyga yaqinroq chiqadi va zamonaviy ilm-fan hamda ishlab chiqarish jarayonlari uchun strategik ahamiyatga ega. Quyida uning asosiy jihatlari keltirilgan:

1. O'lchash jarayonida detallarning aniq va ishonchli bo'lishiga yordam beradi. Bu esa raqamli texnologiyalarning o'lchash natijasi yuqori aniqlikda bo'lishiga katta xissa qo'shadi va xatolik darajasi kamayadi

Raqamlashtirish orqali o'lchovlar onlayn tarzda kuzatilishi mumkin.

Masalan, sanoat korxonalarida sensorlar va 3D formatdagi videoroliklar yordamida avtomatik monitoring amalga oshiriladi.

Raqamli metrologiya xalqaro standartlarga tezroq moslashish imkonini beradi.

Raqamlashtirish yordamida o'lchov natijalari avtomatik tahlil qilinadi. Sifat nazorati va ishlab chiqarish jarayonida tezkor qarorlar qabul qilish mumkin bo'ladi.

Raqamli o'lov tizimlari inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi va xarajatlarni qisqartiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish metrologiyani yangi bosqichga olib chiqmoqda: aniq, tezkor, ishonchli va global miqyosda integratsiyalashgan tizim sifatida shakllantirmoqda.

O'qituvchi har bir dars jarayoniga qiziqish bilan yondashib, mustaqil ijodiy fikrlashi, o'z mehnati samarasini ko'rib, uni baholay olishi kerak. Darsni loyihalashtirishda turli dasturiy mahsulotlardan foydalanadi. Dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda tayyor dasturiy mahsulotlar (ensiklopediya, lug'atlar, ta'limiy dasturlar va shu kabilardan) foydalanishda kompyuterning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Kompyuter Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish texnologiyasi vositasida dars o'tish barcha fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini, ya'ni yangi mavzularni ko'rgazmali tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lib, o'tilgan darslarning materiallarini talaba mustaqil qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Ushbu jarayonda raqamlashtirish ortiqcha qog'ozvozlik va karrupsoin holatlarni oldini olish asosiysi vaqtni tejashga ulkan hissa qo'shmoqda. Bu esa ta'lim sohasida raqamlashtirishning o'rni yuqori darajada ekanligidan dalolatdir.

Xulosa: Bugungi kun talabi axborot - kommunikatsiya texnologiyalari hamda internetdan foydalanish faqatgina ta'lim tizimiga kirib kelmasdan shu sohaning barcha bo'g'inlarini boshqarish, tashkil qilish, axborot resurslari bilan ta'minlanayotganligi sababli ish yuritish hujjatlarini tezlik bilan yo'lga qo'yish, moliyaviy tizim va shu kabi ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli axborot texnologiyalaridan yanada rivojlantirish maqsadida chekka-chekka hududlardagi yoshlar uchun ham ushbu imkoniyatlarni salmog'ini kengaytirish, shu sohadan foydalanish madaniyatini va imkoniyatlarini yaratish, mamlakatimizning barcha sohalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi] T. 30.04.2023 yil.
2. [O'zbekiston—2030] Strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
3. [Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish] mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024 yil 28 mart maqolalar to'plami Primkulova A.A., Muradov S.J., Toshtemirov J.M., Xo'jayeva G.A., Asadullayeva M.A., Musayev S.X.
4. [Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining zaruriy komponenti sifatida] Zaripov Nozimbek Nayimovich Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti (DSc), p.f.f.d. (PhD)., dotsent
5. Zaripov, N., & Protasov, Y. (2023). [Grafik interfeysli dasturlash muhitida ishlash metodikasi]. Research and implementation